

Yuridik shaxslar uchun muddatli depozit omonati bo'yicha

____-sonli SHARTNOMA

Toshkent shahri

“ ____ ” _____ 202__ y.

“**TBC Bank**” ATB nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv Raisi Tetrashvili S. (keyingi o'rinlarda “Bank” deb ataladi) bir tomondan va _____ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor F.I.Sh. (keyingi o'rinlarda “Omonatchi” deb ataladi) ikkinchi tomondan, birgalikda “Tomonlar”, alohida esa “Tomon” deb ataladi, yuridik shaxslar uchun muddatli depozit omonati bo'yicha 2022-yil “ ____ ” _____ dagi _____-sonli Shartnomani (keyingi o'rinlarda “Shartnoma” deb ataladi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Omonatchi Bankka _____ (so'z bilan) so'm miqdoridagi pul mablag'larini (bundan keyin Shartnomada “Omonat” deb yuritiladi) 13/18/24 (so'z bilan) oy muddatga yoki (kun, oy, yil) gacha taqdim etadi. Bank mazkur Shartnomada belgilangan tartibda ushbu mablag'larni o'z vaqtida qaytarish va ularga foizlar to'lash majburiyatini oladi.

2. OMONATNI JOYLASHTIRISH SHARTLARI

2.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha Omonatchining kelib tushgan pul mablag'larini hisobga olish uchun Bank Omonatchiga muddatli depozit hisobvarag'ini (keyingi o'rinlarda “Hisobvaraqlar” deb ataladi) ochadi, unga Omonat summasi o'tkaziladi. Omonatchi va Bank o'rtasidagi hisobvaraqlar bo'yicha o'zaro munosabatlar ushbu Shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

2.2 Omonatga mablag'lar Omonatchi tomonidan uning milliy valyutadagi hisobvarag'idan naqd pulsiz shaklda Bankda ochilgan hisobvarag'iga o'tkaziladi.

2.3 Bank Omonat qoldig'ining mavjud summasiga yillik ____ (so'z bilan) % hisobidan foizlar hisoblaydi va to'laydi, bunda yillik bazaviy davr 365 kun deb qabul qilinadi.

2.4 Omonat summasiga foizlarni hisoblash amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Agar foizlarni to'lash sanasi bank ish kuniga to'g'ri kelmasa, u keyingi bank ish kuniga ko'chiriladi. Bunda to'lanadigan foizlar summasi Omonatning amaldagi stavkasi bo'yicha bank ish kuniga to'g'ri kelmaydigan kunlar uchun hisoblangan foizlar summasiga oshadi. Omonatga foizlar Bank tomonidan har oyda (joriy oyning oxirgi kunida) to'lanadi va Omonatchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga (hisob raqam) o'tkaziladi.

2.5 Ushbu Shartnomaning 2.3-bandiga muvofiq qo'llaniladigan foiz stavkasi, hisobvaraqdagi pul mablag'larining harakatidan qat'i nazar, agar Tomonlar o'rtasida boshqa kelishuvga erishilmasa va ushbu Shartnomaning 2.7-bandida nazarda tutilgan shartlar bundan mustasno, ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida o'zgarishsiz qoladi.

2.6 Ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan muddat mobaynida Omonatchi Fuqarolik kodeksining 762-moddasida belgilangan tartibga muvofiq Bankni tegishli xabardor etgan holda, Omonat summasini to'liq muddatidan oldin talab qilib olishi mumkin. Bunda Bank Omonatchining mablag'larini amalda muddatidan oldin to'lash huquqini o'zida saqlab qoladi.

2.7. Omonat muddatidan oldin talab qilib olingan taqdirda, Bank Omonatchiga Omonatning to'liq summasini hamda Omonatning butun amal qilish davri uchun yillik ____ (so'z bilan) % miqdoridagi stavka bo'yicha hisoblangan foizlarni to'laydi.

2.8. Muddatli omonat hisobvarag'i bo'yicha foizlar har kuni hisob-kitob qilinadi. Bunda, foizlar Omonatchining muddatli omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilgan kunning keyingi kunidan boshlab, ular Omonatchiga qaytarilishidan oldingi kungacha yoki boshqa asoslarga ko'ra muddatli omonat hisobvarag'idan to'liq hisobdan chiqarilgan kungacha bo'lgan tegishli operatsion kunda depozit hisobvarag'i bo'yicha haqiqiy qoldiq summasiga hisoblanadi.

2.9. Omonatni to'ldirish va qisman yechib olishga yo'l qo'yilmaydi.

3. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. Ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng Omonat summasini talab qilib olish;

3.1.2. Ushbu Shartnomaning 1.1-bandida belgilangan muddatga rioya qilish sharti bilan, 2.3-bandda ko'rsatilgan miqdorda Omonat bo'yicha hisoblangan foizlarni olish.

3.1.3. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va ushbu Shartnomaning 2.6- va 2.7-bandlari shartlariga muvofiq omonat summasini qaytarishni talab qilish.

3.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- 3.2.1. Omonatchining pul mablag'laridan uning vazifalaridan kelib chiqadigan maqsadlarni ta'minlash uchun foydalanish;
- 3.2.2. Omonatchini yozma ravishda xabardor qilgan holda Omonat summasini to'liq yoki qisman muddatidan oldin qaytarish. Bunda, agar Omonat Bankning tashabbusi bilan muddatidan oldin qaytarilsa, Omonat bo'yicha foizlar ushbu Shartnomaning 2.3-bandiga muvofiq hisoblanadi va to'lanadi.
- 3.2.3. Omonatchidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligi va Omonatga qo'yilgan yoki qo'yilishi lozim bo'lgan mablag'larni qonuniy yo'l bilan olganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishni talab qilish.
- 3.2.4. Bilgan holda noto'g'ri hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda Omonatchiga operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish.
- 3.2.5. Bank tomonidan so'ralgan hujjatlar va (yoki) ma'lumotlar mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda taqdim etilmagan, shuningdek, Omonatchi tomonidan Bankka to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri hujjatlar va (yoki) ma'lumotlar taqdim etilgan hollarda ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish;
- 3.2.6. Depozit bo'yicha tegishli xatlov o'tkazilmaganligi aniqlangan taqdirda, har chorakda Omonatchini depozitdagi mablag'lar qoldig'ini xatlovdan o'tkazish uchun Bankka majburiy ravishda kelishi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilish.
- 3.2.7. Qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda muddatli depozit hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni vaqtincha to'xtatib turish;
- 3.3. Omonatchi quyidagi majburiyatlarga ega:
- 3.3.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda Omonatni joylashtirish;
- 3.3.2. Ushbu Shartnoma shartlariga qat'iy rioya qilish.
- 3.3.3. Omonatchi tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini va/yoki Omonatga qo'yilgan yoki qo'yilishi lozim bo'lgan mablag'larni olishning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlarni bunday so'rov olingan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Bankka taqdim etish.
- 3.4. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:
- 3.4.1. Bank sirini saqlash. Omonatchining hisobvaraqlari bo'yicha ma'lumotlar uchinchi shaxslarga faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda taqdim etilishi mumkin;
- 3.4.2. Omonatchining Bankdagi hisob raqamiga foizlarni o'z vaqtida o'tkazish;
- 3.4.3. Omonatchidan qabul qilingan pul mablag'larining qaytarilishini va ushbu Shartnomaning 2.3- yoki 2.7-bandlarida ko'rsatilgan stavka bo'yicha Omonat summasi haqiqatda saqlangan butun davr uchun unga tegishli foizlarning to'lanishini ta'minlash.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 4.1. Mazkur Shartnomaning 3.4.2- va 3.4.3-bandlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzganlik uchun Bank Omonatchiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Penya to'lanishidan qat'i nazar, Bank Omonatchi bilan to'liq hisob-kitob amalga oshirilgunga qadar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod etilmaydi.
- 4.2. Omonatchi pul mablag'larini Bankdagi Omonatga joylashtirishning qonuniyligi uchun to'liq javobgar bo'ladi.
- 4.3. Omonatchi Bankka taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning to'g'riligi uchun javobgardir.

5. QO'SHIMCHA SHARTLAR

- 5.1. Ushbu Shartnoma Omonatchi tomonidan omonat summasi Bankka qo'yilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi va mazkur Shartnomaning 1.1-bandida belgilangan muddat davomida amal qiladi. Bunda, agar ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan muddat tugagan va Omonatchi Omonatni va u bo'yicha hisoblangan foizlarni talab qilmagan bo'lsa, muddati tugagan Omonat talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatga o'tkaziladi va ular bo'yicha foizlar talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat shartlari asosida hisoblanadi.
- 5.2. Omonatchi mazkur Shartnomani imzolash vaqtida Omonat muddati tugagandan so'ng, shuningdek, Bank tomonidan Omonatchiga Omonat summasi to'liq qaytarilganda ushbu Shartnomani bekor qilish va omonat hisobvarag'ini yopish zarurligini ham bildiradi.
- 5.3. Mazkur Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda amalga oshirilgan va Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.
- 5.4. Ushbu Shartnomani ijro etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan imkon qadar hal etiladi. Agar nizolar va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan bartaraf etish imkoni bo'lmasa, Tomonlar ularni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga topshiradilar.

5.5. Omonatchi tomonidan Omonat bo'yicha olingan foizli daromadlarga soliq solish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.6. Ushbu Shartnoma har bir Tomon uchun 2 nusxada, teng yuridik kuchga ega bo'lgan har bir tomon uchun bittadan nusxada tuzilgan. Bunda Tomonlar ushbu Shartnomani tuzish va imzolash uchun barcha vakolatlarga ega ekanliklarini bir-birlariga ma'lum qiladilar va kafolatlaydilar.

6. FORS-MAJOR HOLATLARI

6.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, agar bunday holat Shartnoma tuzilgandan so'ng yuzaga kelgan favqulodda hodisalar natijasida yuzaga kelgan yengib bo'lmay kuch (fors-major) holatlari tufayli sodir bo'lganligini isbotlasa, Tomonlar oldindan ko'ra olmagan yoki oqilona choralar bilan oldini ololmagan va Tomonlar o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarish uchun barcha mumkin bo'lgan va o'zlariga bog'liq choralarni ko'rgan bo'lsa, Tomonlar javobgar bo'lmaydilar. Fors-major holatlarga, xususan, harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini kabilar) ta'siri hamda davlat organlarining qarorlari kiradi.

6.2. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida Tomonlar ular yuzaga kelgan sanadan boshlab 10 (o'n) kun ichida bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

6.3. Fors-major vaziyatlar yuz bergan taqdirda, Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday vaziyatlar va ularning oqibatlarini amal qiladigan davrga ko'chiriladi.

7. MAXFIYLIK

7.1. Ushbu Shartnomaga muvofiq, Tomonlar o'rtasida Shartnomani ijro etish munosabati bilan bir-birlariga taqdim etiladigan va uchinchi shaxslarga noma'lumligi bois haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanish imkoniyati bo'lmagan va egalik qiluvchi shaxs uning maxfiyligini himoya qilish choralari ko'radigan, shuningdek, Shartnomani ijro etish jarayonida Tomonlar foydalana olgan va ommaviy oshkor bo'lmagan texnik, moliyaviy, tijorat va boshqa ma'lumotlarni cheklamagan holda o'z ichiga olgan ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.

Ushbu Shartnomaning mazmuni Tomonlarning maxfiy va o'zigagina tegishli bo'lgan ma'lumotlar deb hisoblanishi lozim. Shunga muvofiq, Tomonlar oldindan yozma rozilik olmagan holda yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarni hech kimga oshkor qilmasliklari shart, faqat ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar ijrosini ta'minlash uchun ko'rsatilgan ma'lumotlarni bilishi zarur bo'lgan Tomonlarning xodimlari bundan mustasno.

7.2. Tomonlarning har biri ikkinchi Tomonning hamkorlik natijasida va/yoki jarayonida foydalanishi mumkin bo'lgan maxfiy ma'lumotlarini ikkinchi Tomonning oldindan yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik va/yoki boshqa tarzda taqdim etmaslik majburiyatini oladi.

7.3. Agar ma'lumot ochiq rasmiy manbadan olingan bo'lsa, u maxfiy hisoblanmaydi.

7.4. Ushbu Shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga uzatish, Shartnoma amal qilish muddati davomida va u bekor qilingandan so'ng 5 (besh) yil mobaynida e'lon qilish yoki boshqacha tarzda oshkor qilish faqat Tomonlarning yozma roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

7.5. Maxfiylik shartlarini buzgan Tomon jabrlangan Tomonga mazkur Shartnoma umumiy qiymatining 50 foizi miqdorida jarima to'laydi, shuningdek, bunday buzilish tufayli yetkazilgan barcha bevosita zararlarni qoplaydi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI CHORA-TADBIRLAR

8.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Tomonlar korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va mazkur Shartnomaga muvofiq o'z huquqlari yoki majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari normalarini buzishi mumkin bo'lgan hech qanday xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlari, hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari, davlat xizmatchilari, xususiy kompaniyalar va ularning vakillariga pul yoki boshqa shaklda pora berishni taklif qilmaslik, ruxsat bermaslik, va'da bermaslik va noqonuniy to'lovlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar. Tomonlardan biri Shartnomaning ushbu bandida ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, ikkinchi Tomon Shartnomani bajarishdan suddan tashqari bir tomonlama tartibda bosh tortish huquqiga ega. Shartnoma ushbu bandga muvofiq bekor qilingan taqdirda, Tomonlar bir-birlariga zararlarni qoplaydilar.

8.2. Tomonlar quyidagilarni ma'lum qiladilar va kafolatlaydilar:

8.2.1. Tomonlarning har biri, shuningdek, ular bilan bog'liq shaxslar o'z faoliyatini vijdonan va qonuniy ravishda, yuksak odob-axloq me'yorlariga rioya qilgan holda olib borishlari lozim. Tomonlar korrupsiya, soliq sohasidagi firibgarlik, har qanday shaklda soliq to'lashdan bo'yin tovlashga ko'maklashish va boshqa har qanday turdagi jinoiy xatti-harakatlarga nisbatan mutlaqo murosasizlik siyosatiga amal qiladilar va yuqorida qayd etilgan masalalarni doimiy nazorat qiladilar.

8.2.2. Tomonlar, shuningdek, ular bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar: vakolatli shaxslar, vakillar korrupsiyaga (bevosita yoki bilvosita), soliqlar bilan bog‘liq firibgarlikka va soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashga har qanday shaklda ko‘maklashishi mumkin bo‘lgan biron-bir faoliyatda ishtirok etmasligi kerak.

9. SANKSIYAGA QARSHI CHORALAR

9.1. Tomonlar ushbu kelishuv maqsadlari uchun “sanksiyalar” atamasi quyidagi tashkilotlarning istalgan biri (“vakolatli shaxslar”) tomonidan muntazam ravishda joriy etiladigan va/yoki qo‘llaniladigan iqtisodiy va/yoki moliyaviy sanksiyalar, qonunlar, qoidalar, savdo embargosi va boshqa oldini olish choralari (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan) anglatishini ma’lum qiladi va tasdiqlaydi:

(A) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan sanksiyalarni joriy etish va/yoki qo‘llash uchun tegishli ravishda vakolat berilgan har qanday muassasa yoki jismoniy shaxs;

(B) Yevropa Ittifoqi tomonidan sanksiyalarni joriy etish va/yoki qo‘llash uchun tegishli ravishda vakolat berilgan har qanday muassasa yoki shaxs;

(C) AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC), AQSH Davlat departamenti va/yoki AQSH Savdo vazirligi.

9.2. Omonatchi o‘zi (uning ta‘sischilari, rahbariyati va/yoki ijroiya/kuzatuv kengashi a‘zolari hamda bevosita yoki bilvosita, bir yoki bir nechta vositachilar orqali omonatchi va/yoki benefitsiar mulkdor (mulkdorlar) faoliyati va siyosatini nazorat qiluvchi, unga ko‘maklashuvchi har qanday shaxs) ekanligini ma’lum qiladi va tasdiqlaydi:

9.2.1. Terrorizmni va/yoki boshqa har qanday xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaganlik uchun, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, sanksiyalar qo‘llaniladigan shaxslar ro‘yxatiga kiritilmagan/kiritilmaydi (bundan keyin “sanksiya qo‘llaniladigan shaxslar ro‘yxati” deb yuritiladi).

9.2.2. Ular vakolatli shaxs (yoki shaxslar) tomonidan embargo qo‘yilgan yoki muddati uzaytirilgan davlatning rezidenti hisoblanmaydilar yoki bo‘lmaydilar.

9.2.3. Sanksiya qo‘llaniladigan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan biror shaxs va/yoki tashkilot bilan bevosita va/yoki bilvosita, shu jumladan boshqa shaxs (shaxslar) orqali bitim tuzilmaydi/amalga oshirilmaydi.

9.2.4. Ular bevosita va/yoki bilvosita, shu jumladan boshqa shaxslar orqali, sanksiya qo‘llaniladigan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan biror shaxs va/yoki tashkilotga hech qanday aktiv/mulkni moliyalashtirmaydi va/yoki o‘tkazmaydi.

9.3. Agar Omonatchi yuqoridagi bandlarga muvofiq sanksiya qo‘llaniladigan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lsa, Bank istalgan vaqtda ushbu Shartnomani darhol bir tomonlama bekor qilishga haqli.

10. XABARNOMALAR

10.1. Tomonlar o‘rtasidagi har qanday rasmiy xabar yozma shaklda (ham bosma, ham elektron shaklda) bo‘lishi kerak. Tomonlarga taqdim etilgan yozma xabarnoma shaxsan yoki kuryer (shu jumladan xalqaro kuryer) tomonidan yoki pochta orqali (shu jumladan buyurtma xat orqali) yuborilishi mumkin. Samaradorlikni ta‘minlash maqsadida xabarlarni elektron pochta orqali yuborish ruxsat etiladi. Ushbu hujjat bilan Tomonlar quyidagiga rozilik bildiradilar: agar Tomon Shartnomada ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga xabarnoma yuborsa, xabarnomaning qabul qilinganligi (Tomonga yetkazilganligi) tegishli texnik hisobot va/yoki tegishli texnik tasdiqlash orqali tasdiqlanishi lozim.

10.2. Tomonlar mazkur Shartnomaga muvofiq taqdim etilgan elektron pochta manzili xabarnoma yuborish uchun rasmiy manzil hisoblanishiga rozilik bildiradilar.

Bank bilan bog‘lanish uchun: contact@tbcbank.uz elektron pochta manzili, aloqa uchun telefon: +998787772727; Omonatchi bilan bog‘lanish uchun: _____ elektron pochta manzili, aloqa telefon raqami: +99871_____.

10.3. Agar xabarnoma qabul qilib olinganligi Qabul qilib oluvchi tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa, xabarnoma (shu jumladan elektron hujjat, kvitansiya, xabardor qilishning boshqa tegishli vositalari va h.k.) qabul qilib oluvchi tomonidan u olingan kunda yetkazib berilgan hisoblanadi. Agar xabarnoma olinganligi qabul qiluvchi tomonidan tasdiqlanmagan bo‘lsa, bunday har qanday xabarnoma, vaziyatga qarab, xabarnoma yuborilgan sanadan keyingi kunda yuborilgan va olingan deb hisoblanadi.

10.4. Xabarnoma, shuningdek, yuborilgan va olingan taqdirda, qonunda nazarda tutilgan har qanday shaklda va usulda olingan/qabul qilingan deb hisoblanadi.

10.5. Tomonlardan biri manzil(lar) (shu jumladan elektron pochta) yoki o‘zining har qanday ma’lumotlari o‘zgarganligi haqida darhol ikkinchi Tomonni xabardor qilishi kerak, aks holda Tomon ushbu manzilga (shu jumladan elektron pochtaga) yuborgan xabarnoma tegishli tarzda yetkazilgan deb hisoblanadi.

11. TASDIQLASH VA KAFOLATLAR

11.1. Ushbu bilan Omonatchi quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

11.1.1. Ish munosabatlarini vijdonan va qonuniy, yuksak axloqiy me'yorlar asosida olib boradi, korrupsiya, poraxo'rlik va boshqa har qanday jinoiy faoliyatga yo'l qo'ymaydi va ushbu masalalar ustidan nazoratni saqlab qoladi.

11.1.2. Omonatchi, shuningdek, u bilan o'zaro bog'liq bo'lgan shaxslar: uning sho'ba korxonalari, bosh korxonalari a'zolari, vakolatli shaxslar, vakillar, xodimlar, ishchi va xizmatchilar korrupsiyaga, soliq sohasidagi firibgarlikka va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga har qanday shaklda (bevosita yoki bilvosita) ko'maklashishi mumkin bo'lgan har qanday moddiy yoki nomoddiy boyliklarni taklif etish, olish, mukofotlash, yetkazib berish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasligi kerak. Shartnoma imzolanish vaqtida Omonatchi ham, u bilan bog'liq tomon ham bevosita yoki bilvosita hech qanday noqonuniy va/yoki yashirin to'lovlar, pora va/yoki kompensatsiyalar olmagan yoki olish kerak bo'lgan operatsiyalarda ishtirok etmagan.

11.1.3. Omonatchi tomonidan depozit hisobvaraqlariga qo'yiladigan barcha mablag'lar uning halol va qonuniy yo'l bilan, shuningdek, amaldagi qonunchilik shartlariga zid bo'lmagan usullar bilan ishlab topilgan o'z mablag'lari hisoblanadi.

11.1.4. Omonatchi jamoat tashkiloti yoki jamoatchilikka mansub shaxs bo'lmay, o'z nomidan harakat qiladi. Biroq, Omonatchi ushbu shart o'zgargan taqdirda Bankni darhol xabardor qilish majburiyatini oladi.

11.1.5. Omonatchi, shuningdek, u bilan bog'liq shaxslar korrupsiya/pora olishda aybdor deb topilmagan va/yoki ayblanmagan.

11.2. Yuqoridagi bandlardan birining bajarilmasligi Bankning tashabbusi bilan ushbu Shartnomani bekor qilishga olib kelishi mumkin.

11.3. Yuqorida ko'rsatilgan tasdiq va kafolatlar Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq va tegishli tarzda bajarmaguncha amal qiladi.

11.4. Omonatchi mazkur kafolatlarni buzishi mumkin bo'lgan har qanday holatlar to'g'risida Bankni darhol yozma va/yoki elektron shaklda xabardor qilishi shart.

12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

OMONATCHI

BANK

“ _____ ”

Manzil: _____

h/r: _____

Bank: _____

Bank kodi: _____

STIR: _____

IFUT: _____

Telefon: +99871 _____

“TBC Bank” ATB

Manzil: 100015, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor
ko'chasi, 10B uy.

“TBC Bank” ATB,

Bank kodi: 01180

STIR: 207 318 613

IFUT: 64190

h/r: _____

Telefon: +998787772727

Elektron pochta: contact@tbcbank.uz

F.I.Sh. _____

Bosh direktor

Tetrashvili S. _____

Boshqaruv Raisi